

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1
2022
(yanvar-fevral)



www.pubedu.uz
<https://t.me/xalqtaлимijn>



XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

1-son
(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** O'qigan kishi, yangi fikr, yangi g'oya va tashabbuslar bilan yuradi



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- X. Ibragimov 6** Kommunikativ kompetensiya – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim mezon sifatida
- O. Ro'zibayev 10** Ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari
- J. Meliqo'ziyev 13** Diniy-ma'rifiy soha taraqqiyotining yangi davrida tashkiliy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarning mustahkamlanishi
- N. Xujayarova 19** Bo'lajak pedagoglarda kreativ sifatning shakllanishi
- K. Kayumova, F. Tolipov 22** Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ayrim nazariy-metodologik jihatlari xususida
- S. Yuldashev 27** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanining ahamiyati
- D. Ximmataliyev, A. Jumanov 31** Kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash
- M. Parpiyeva 34** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish
- D. Shahmurodova 39** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish tamoyillari
- M. Maksumova 42** Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
- Sh. Xayitova 45** Innovatsion yondashuv asosida talabalarni mustaqil faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari
- D. Abdullayev 48** O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'рни



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- L. Namazbayeva 52** Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
- M. Atoyeva 55** Fizika ta'limida sinergetik texnologiyalarning ahamiyati
- G. Yaxyoyeva 59** Chet tilini o'qitish jarayonida talabalar ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shartlari
- O'. Farmonov 61** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirish



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Niyozqulov 65** Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish
- A. Abdazimov 68** Kredit-modul tizimi – oliy ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik asosi



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Sh. Ne'matov 72** Uyg'onish davri ma'rifatparvarlari faoliyati: tadqiq va xulosa
- O. Akbarov 78** Badiiy adabiyotda oila tarbiyasi bilan bog'liq etnopedagogik qarashlarning ifodalanishi

Xolboy IBRAGIMOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'ZPFITI direktori

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA – BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning ahamiyati bayon etiladi. Muallif pedagogik-psixologik adabiyotlar asosida kommunikativ malakalar va kompetentlik masalasining qiyosiy tahlilini keltiradi.

Kalit so'zlar. Bo'lajak o'qituvchilar, kasbiy kompetentlik, kommunikatsiya, kommunikativ kompetentlik, kommunikativ faoliyat.

В статье рассматривается важность коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности будущих учителей. Автор дает сравнительный анализ проблемы коммуникативных навыков и компетенций на основе педагогической и психологической литературы.

Ключевые слова. Будущие учителя, профессиональная компетентность, коммуникация, коммуникативная компетентность, коммуникативная деятельность.

The article examines the importance of communicative competence in the professional activities of future teachers. The author provides a comparative analysis of the problem of communication skills and competencies on the basis of pedagogical and psychological literature.

Key words. Future teachers, professional competence, communication, communicative competence, communicative activity.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimi ularda kasbiy zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirmog'i va professional faoliyatga tayyorlashi lozim. Kasbiy psixologiya fanida E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi keng tarqalgan. Unda mehnat obyektiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi. Bular:

1. Inson – tabiat;
2. Inson – texnika;
3. Inson – inson;
4. Inson – belgilar tizimi;
5. Inson – badiiy obraz.

O'qituvchilik kasbi inson-inson tipidagi kasbga mansub bo'lib, ushbu kasbni o'zaro muloqot, kommunikatsiya, persepsiya va shaxslararo muloqotsiz tasavvur etish qiyin. Ya'ni kommunikativ kompetensiya ushbu kasb egalarining eng muhim va asosiy kompetensiya turlarini tashkil etadi. Chunki XXI asr axborot asri. Bu asrni ma'lumotlarni olish, uzatish, saqlash, qayta ishlash operatsiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Pedagogik va psixologik adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarining kommunikativ sifatlari murakkab integrativ fenomen sifatida o'qituvchining ta'lim jarayoni

boshqa qatnashchilari bilan aloqa o'rnatishi, uni davomiy saqlab turishi va rivojlantirishini ta'minlovchi professional malakalari sifatida namoyon bo'ladi. Umuman insoniyat evolyutsion taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan: "homo habilis" (tik yuruvchi odam), "homo potentis" (uddaburon odam), "homo sapiens" (aql-zakovatli odam). Bizning davrimizni esa ko'p tadqiqotchilar "homo loguens" ya'ni so'zlashuvchi odam deb nomlashni taklif qilishgan. Chunki, har bir inson ma'lumot uzatish yoki uni qabul qilish jarayonidan chetda emas, bu esa o'z navbatida, kommunikativ faoliyat ahamiyatini yanada oshiradi.

O'qituvchining yetuk mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi – shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.


"Kommunikatsiya" so'zi lotincha "communico" so'zidan olingan bo'lib, "umumiy qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman" degan ma'nolarni anglatadi.


O'zbekiston Respublikasining taniqli olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar o'qituvchilarda kommunikativ-kompetentlikni shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi pedagog va psixologlari (N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, R.X.Djo'rayev, O.Musurmanova, U.SH.Begimqulov, N.N.Azizxodjayeva, M.G.Davletshin, M.Ochilovlar) tadqiqotlarida turli nuqtayi nazarlardan ko'rib chiqilgan. Jumladan, N.Azizxodjayeva bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarni shakllanishini o'rgangan. Tadqiqotchilar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayevlar pedagogning pedagogik kompetentligi hamda kreativligi asoslariga e'tibor qaratganlar. Pedagog olimlarimizdan O.Musurmanova yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rgangan. R.X.Djo'rayev ta'lim sifatini rivojlantirish asoslarini o'rganishgan.

Kommunikatsiya – bu birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi. Demak, kommunikatsiya o'ziga xos o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. Shuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

E.N.Zaretskayaning fikricha, kommunikativ faoliyat ma'lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi bo'lib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qo'yilgan o'ziga xos "qadam" sifatida ko'rib chiqilishi mumkin". Taniqli psixolog A.N.Leontevning konsepsiyasiga tayangan holda, unda "kommunikativ faoliyat"ning, aniq strukturaviy komponentlardan iborat (1-rasm) ekanini ko'rish mumkin.





1-rasm. "Kommunikativ faoliyatning strukturaviy komponentlari"
(A.N. Leontev konsepsiyasi bo'yicha)

Kommunikativ kompetensiya – shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir. "Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so'zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, etika va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo'lish usullari ifodalanadi".

Kommunikativ faoliyat murakkab dinamik tizim sifatida o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibiga ko'plab elementlar kiradi. Ular:

- predmetli (nutqqa oid bo'lmagan kompetensiya);
- tilga oid (nutqqa oid kompetensiya);
- ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy muloqotlar sohasidagi bilim va tajriba, muloqot psixologiyasini qamrab oluvchi);
- pragmatik (ma'lum vaziyatda muloqotning sabablari, ko'rsatmalari va maqsadlari bilan bevosita adresant (yuboruvchi) va nutq adresati (oluvchi) bilan bog'langan)".

Umuman kommunikativ kompetentlilik quyidagi o'ziga xos integratsion xususiyatlardan iborat:

1. Muloqot amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kommunikativ vaziyatning negizini ijtimoiy-psixologik prognozlashtirish.

2. Muloqot jarayonini o'zini ijtimoiy-psixologik dasturlash, bunda kommunikativ vaziyatning o'z-o'ziga xosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

3. Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqaruv xususiyatlari bilan amalga oshirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentliliigi tushunchasi o'z ichiga quyidagi harakatlar uchun zarur bo'lgan uyg'unlashgan kompetensiyalarni kiritishni talab etadi:


– shaxslararo idrok qilish va kommunikativ muloqot (perseptiv komponent) vaziyatlarini baholash;

– kommunikativ muloqot (refleksiv komponent) jarayonida o'z-o'zini tahlil qilish va o'ziga o'zi baho berish;

– shaxslararo muloqot uchun mos vositalarni tanlash;

– muloqot jarayonini boshqarish va inson axloqini mos ravishda tartibga solish (axloqiy komponent) (2-rasm).

Kommunikativ kompetentlilik bo'lajak o'qituvchilar tomonidan tanlangan kommunikatsiya uslubida va muloqotdagi rolli o'rinlarda o'z ifodasini topishi mumkin, ular yetakchilik qiluvchi o'zaro ta'sir qilish maqsadlari bilan ta'minlanib, barqaror ekspressiv xususiyatlar, shu bilan bir qatorda, muloqot vaziyati jarayonidagi kommunikativ harakatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ pozitsiyasi uning muloqotning belgilangan maqsadlariga erishish yo'llari hamda suhbatdoshi shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabati, shuningdek, o'zaro ta'sirning aniq muloqot uslubi jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan o'ziga xos talablarini aks ettirishi mumkin.



2-rasm. Kommunikativ kompetentlilikning pedagogik qobiliyatlarni kompleks takomillashtirish bilan aloqadorligi

Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlash jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish hamda o'quv mashg'ulotlarini olib borishda auditoriyada quyidagilarga amal qilishi kerak deb hisoblaymiz:

1. "Muloqotga doimiy tayyorlik". Muloqot jarayonidagi umumiy va shaxsiy to'siqlarning mavjudligi ko'pincha ma'lumotlarni talabalar tomonidan chala va noto'g'ri tushunishiga olib keladi.

2. "Aniqlik". O'qituvchi mavhum iboralar va so'zlardan foydalanmasligi va juda keng tarqalmagan atamalarni ishlatmaslik kerak.

3. "Xatti-harakatlarni tizimlashtirish". O'qituvchi faqat nutqi va muloqot tarkibini boshqarishi emas, balki, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni, intonatsiyani va xulq-atvorini ham nazorat qilishi kerak.

4. "Shaxsiy xatolik". Muloqotda har doim o'z shaxsiy nuqtayi nazarimizni noto'g'ri bo'lishi ham mumkin deb taxmin qilishimiz kerak. Bu bizni jiddiy xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi.

5. "Joy va vaqt". Agar biror ma'lumotni yetkazish o'z vaqtida va eng maqbul vaziyatda amalga oshirilsa, har qanday ma'lumotning ta'sirchanligi keskin oshadi.

6. "Ochiqlik". O'z nuqtayi nazarimizni bahsli holatlar ta'sirida yuzaga kelgan yangi vaziyatlarda qayta ko'rib chiqishga tayyorlik, suhbatdoshning fikrini qabul qilish va hisobga olish qobiliyati.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligi bu:

- birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikatsiya sohasidagi malakalarining yig'indisi bo'lib, ular ma'lum bir faoliyatni bajarish uchun zarur hisoblanadi;

- ikkinchidan, bu bo'lajak o'qituvchilarning boshqa insonlar bilan o'zaro hamkorligi, shaxslararo turli vaziyatlardagi mustaqil faoliyati jarayonida orttirgan hayotiy tajribasining qismidir;

- uchinchidan, bu bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsga oid sifatleri bo'lib, ular uning olam, shuningdek, o'z-o'zi bilan va o'zaro muloqotlarining butun tizimini tartibga soladi;

- to'rtinchidan, bu turli faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini aniqlab beruvchi va shu bilan birga, belgilangan faoliyat turiga ham mos keluvchi xususiyatdir;

- beshinchidan, bu bo'lajak o'qituvchilarning real hayotiy vaziyatlar vujudga kelganida yuqorida keltirilgan komponentlarga muvofiq holda o'z muloqot jarayonini tashkillashtirishga tayyorligi. Keltirilgan komponentlarning mavjudligi ma'lum sohada kishining mahsuldor-professional faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning majburiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Климов Е. А. Обзорная классификация профессий для информационного обеспечения профессионального самоопределения молодежи // Психологические основы профессиональной деятельности. – 2007. – С. 209.
2. Соловьева Эльвира Баязитовна. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущего учителя иностранного языка: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08: Магнитогорск, 2001 – С.156.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped. fan. dok. diss. – T., 2007. – 305-b.
4. Зарецкая И.И. Профессиональная культура педагога: Учеб. пособие. – М.: 2002. – С.28.
5. Леонтьев А.Н. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – С.392.
6. Металева В.А. Рефлексия и её роль в преодолении профессиональных затруднений педагога: Дис. канд. пед. наук – Екатеринбург, 1996. – С. 207.
7. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. Saylanma. – T.: O'qituvchi, 1997. – 125-b.
8. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. // Ped. fan. dokt. ...diss. – T.: – 2006. – 302-b.

Ortiq RO'ZIBAYEV,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti tadqiqotchisi

TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada kreativlik, pedagogik kreativlik tushunchalari, ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka erishish uchun talabalarning kreativligini oshirish yo'llari, shuningdek, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda kreativlikni yanada oshirish tartibi va pedagogik shart-sharoitlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, kreativ potensial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potentsiali, mezonlar.

В статье рассматриваются понятия креативности, педагогического творчества, способы повышения креативности учащихся с целью достижения высокой эффективности в системе образования, а также порядок повышения креативности при осуществлении воспитательной работы и педагогические условия.

Ключевые слова. Креативность, творческий потенциал, педагогическое творчество, творческий потенциал учителя, критерий.

The state considers the concepts of creativity, pedagogical creativity, the possibility of increasing the creativity of students and teachers in order to achieve high efficiency in the education system, as well as the procedure for increasing creativity in the implementation of educational work and pedagogical conditions.

Key words. Creativity, creative potential, pedagogical creativity, teacher's creative potential, criteria.